

## BUGUNGI TALIM TARBIYANING ZAMONGA MOSLIGI

Suxanova Laylo Jurayevna

Umarova Nasiba Allanazarovna

*Surxandaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani**14-sonli umumta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi holati va uning bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan yoritib o'tilgan bo'lib, keltirilgan tavsiyalar bolalar aqliy rivojlanishida amaliy yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Aql, idrok, tafakkur, intellekt, mustaqil fikrlovchi, iqtidorli, bilim, ta'lim, irodasi baquvvat, iymoni butun.*

Yangilanib borayotgan Yangi O'zbekistonimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatida imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasi, inklyuziv ta'limning hamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimining o'quvchilarning rivojlanish salohiyatlari, o'ziga hos xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi, imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish va bir qancha tamoyillar asosida tashkil etish belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'limni shakllantirish va amaliyotga jori etilishi yo'zasidan pedagogika va psixologiya sohasi olimlari XX asrning ikkinchi yarimdan ilmiy izlanishlar olib borib, XXI asrda ko'p rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekistonda ham joriy etildi. 2003 yilda Respublikamizda "Talim hamma uchun" Milliy dasturi ishlab chiqildi. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasi YUNESKONing maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib muammolarni isloh etish va istiqbollari tahlil qilindi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritardi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan ilmiy jihatdan ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integrasilashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun- moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

Rus psixologi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi, boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni etirof etgan.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, xoh u maxsus maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lsin, xoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin. xoh uyda ta'lim olish bo'lsin - o'qitishning barcha shakllari -ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi. Chunki, o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi

ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va otanasining huquqi hisoblanadi.

Psixologlarning fikricha iqtidor ham, ruhiy nuqsonlar ham go'yoki tug'ma alomatlaridir. Buyuk shaxslardagi talantni rivojlantirib, ruhiy nuqsonlarni hech bo'lmasa kamaytirish mumkinmi? Psixogenetiklar bu muammo ustida bosh qotirmoqdalar, tarbiya va ta'limning buyuk shaxslarni voyaga yetkazishga ta'sirini o'rganmoqdalar. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda bu muammoga katta e'tibor qaratish kerak. Zero, har bir buyuk shaxs yoki daho millionlab odamlarning taqdirini hal qiladi, chunki siyosat bilan shug'ullanadigan ba'zi "dohiyalar" xalqlar ustiga kulfatlar yog'dirgan va yog'dirmoqdalar.

Inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyatlari cheklangan bolalarning har tamonlama rivojlanishi, jamiyatga moslashuvi va o'z o'rniga ega bo'lishi, tarbiyachining bilim va mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi pedagog ta'lim beradigan sinfida imkoniyatlari - cheklangan bola bo'lsa, unga mehribonlik ko'rsatib, sinf jamoasidan uni qo'llab quvatlashlarini so'rab samarali psixologik muhitni tashkil eta olsa, imkoniyatlari cheklangan bola ruhlanib rivojlanish jarayoniga amaliy ta'sir etkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. T.: 2008 yil.
2. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi.-Toshkent. «Iqtisod-moliya» 2008 yil.
3. Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi. T., 2005 yil.
4. Solso K. Kognitivnaya psixologiya. M.: 2002 yil.